

NAZARIY ADABIYOTLARDA BADIY OBRAZGA DOIR QARASHLAR

*TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
dotsent, Lobar Mardonova,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-kurs talabasi Eshmuradova Asila*

Annotatsiya: Har bir san'at sohasining o'ziga xosligi ular orasidagi farqi o'zaro uyg'unligiga to'sqinlik qilmaydi. Bunday uyg'unlik turli ko'rinishlarda aks etadi. Badiiy adabiyotni inson poetik tafakkurining alohida hodisasi sifatida, uni boshqa sohalar bilan qiyoslaganda, odamlarning ma'naviyima'rifiy faoliyatidagi ijodiy omil sifatida baholash o'rinnlidir.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-tarixiy, sharoit, poetika, poeziya, o'zbek mumtoz poetikasi

Ma'lumki, adabiyotshunoslik ilmi badiiy obraz deganda asardagi qahramonlar bilan birga ijodkor qo'llagan ifodalar, ko'chma ma'no beruvchi so'z, iboralarmi ham nazarda tutadi. Masalan, "zuvalasi pishiq", "bo'limli", sag'ir" (etim), "burnini jiyirib" (nazarga ilmay) kabi shevaga xos so'zlar, "o'zbek eli o'r keladi, o'zi o'jar, zo'r keladi"¹ singari tasvirlar o'zbekka, Surxon vohasi kishilariga xos tabiat, yashash tarzi, tafakkuri, qadriyatlarini namoyon qiladi. Adibga xos bunday ifoda usuli o'zbek nasri, epik bayonchilikni yangi o'zanga burib yubordi, shaxsiy bayon uslubini yaratdi. Aksar hollarda badiiy tasvir vositalari ham badiiy obraz ataladi. Shu bilan birga biror tarixiy davrga xos manzaralarning bo'rtma va hassos ifodasi ham obraz hisoblanadi. Ko'rindiki, badiiy obrazning ikki muhim jihatni bor:

- a) obrazda hodisalarning muhim xususiyatlari umumlashtiriladi;
- b) unda muayyan aniqlik (yakka hodisa, alohida bir odam) aks etadi.

Dunyo adabiyotshunoslarning sa'y-harakatlari bilan badiiy obrazning yaratilishi lozim bo'lgan zamonaviy nazariyasi XIX-XX asr adabiyotida kechgan yangilanishlarda ko'zga tashlanadi. Bu davr badiiy obraz evolyusiyasini ifodalaydigan hodisalarga va uning oldingi davrlardagi tarixiy rivojlanishini yangicha anglashga mo'ljallangan edi. Vaqt o'tgan sari bu sohadagi hal etilishi muhim bo'lgan vazifalarning doirasi kengayaveradi. Ayni ishdagi muammo esa nasrdagi obrazlar poetikasini ishlab chiqish uchun tegishli yondashuvlarni belgilashdan iboratdir.

Jahon hamjamiyatiga kiruvchi turli mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyot darajasi o'zaro farqli bo'lib, bu milliy adabiyotlar taraqqiy darajasida ham o'z aksini topadi. E'tiborli jihatni shuki, umuman kishilik jamiyatni taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga xos ijtimoiy-tarixiy sharoit alohida olingen har bir konkret jamiyat taraqqiyotining

¹ Тоғай Мурод. Таңланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 128.

muayyan bosqichlarida mohiyatan o‘xshash tarzda takrorlanadi. Shunga bog‘liq holda milliy adabiyotlar taraqqiyotining muayyan bosqichlari ham mohiyatan o‘xshash bo‘ladiki, buni *milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylilik* deb yuritiladi.

Har bir san’at turi odamlar hayotining turli tomonlarini aks ettirish, ularning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishda o‘zining badiiy vositalari hamda o‘ziga xos imkoniyatlariga ega. Agar shunday bo‘lmaganda san’atning turli tiplariga ham ehtiyoj sezilmasdi. Turli sabablarga ko‘ra san’at hodisasini mensimaslik muqarrar ravishda jamiyatning ma’naviy hayotidagi rolining susayishiga olib keladi. Misol uchun, “san’at va fanni bir-biridan faqat borliqni tushunib yetish shakli farqlaydi” degan qarashlarga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki borliqni turli tadqiqotlar orqali estetik o‘zlashtirishning umumlashtiruvchi roli turfa xil. Ko‘pincha, san’at dunyoning yaxlit qiyofasini mujassam etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Ba’zan esa uning xususiyatlari haqiqatning fan orqali ochilishida mantiqiy isbotni talab qilmaydi deb qabul qilinadi.

Qadimgi yunon faylasufi va olimi Arastuning haqiqiy nafosat hamda san’at qonun-qoidalari haqidagi fikrlari “Poetika” (Nafis san’at haqida) asarida bayon qilingan. Poetika – badiiy asar qurilishi va unda foydalangan badiiy tasvir vositalarining mazmun-mohiyati haqidagi fan. Poetika terminiga lug‘atlarda shunday izoh keltiriladi:

- 1) poetika, poeziya (poetik ijod) nazariyasи;
- 2) poetika (adabiyot nazariyasining badiiy asarlar tuzilishini va ularda qo‘llangan tasviriy vositalarni o‘rganuvchi qismi);
- 3) poetika (muayyan shoir, oqim yoki davrga xos bo‘lgan she’riy uslub; uzbekskaya klassicheskaya: o‘zbek mumtoz poetikasi; — Oybek poetikasi”².

Shu o‘rinda adabiyotshunos V.M.Jirmunskiyning “Poetika – she’riyatni san’at sifatida o‘rganadigan fandir”³ degan fikri tufayli poetika adabiyotshunoslik nazariyasining tarkibiy qismi ekani e’tiborni tortadi. Endi poetika ilmiga bugungi kunning ba’zi tadqiqotchilari kabi she’riyat emas, balki umumbashariy go‘zallik, san’at, xusan, so‘z san’ati qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sifatida qarash kerak. Hozirgi adabiy turlar; proza, poeziya va drama so‘z san’atining turli shakliy ifodasi. Poetikani kengroq aspektda adabiyot ilmining, ya’ni nazariyaning qoidalari o‘rganadigan soha desak ayni muddao. “Poetika (yunoncha: ijod san’ati) keng ma’noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanayotgan ma’noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta’limot”¹⁷. Adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi desak, biz ilgari surmoqchi bo‘lgan qarashlarga mos keladi.

² Русча-ўзбекча лугат. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. — Б. 92.

³ Жирмунский В.М. Историческая поэтика А.Н.Веселовского. – Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Горский И.К. Александр Веселовский и современность. – Москва: 1975. – С. - 9-10. ¹⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 233.

Poetika fani muammoni o'rganish, masalaga yondashish jihatidan ikkiga ajraladi.

1. Tarixiy poetika.

2. Nazariy poetika.

Tarixiy poetika: adabiyotshunoslik tarixidagi nazariy jarayonlarni, unga tegishli badiiy usul va vositalarni qiyosiy aspektida o'rganadi va muayyan davr haqidagi zamon bilan hamnafas asarlarning go'zalligini ko'rsatadi. Hozirgi adabiy jarayondagi asarlar bilan tarixda yaratilgan asarlarni qiyoslab o'rganish ham tarixiy poetika masalasıdir. Tarixiy poetika badiiy asar tarkibiy qismlari va ularning vazifalari o'zgarishini qamrab olib, diaxron nuqtai nazardan tahlil qiladi, bunday o'zgarishlar yirik madaniy davrlar qamrovida kechadi. "Tarixiy poetika alohida badiiy usul va vositalarning tarixiy tadrijini qiyosiy va tipologik aspektlarda o'rganadi"⁴. Bu fanning maydonga kelishida A.N.Veselovskiyning alohida o'rni bor. Uning poetika haqidagi qarashlari "Istoricheskaya poetika" (Tarixiy poetika) asarida o'z aksini topgan.

Nazariy poetika (umumiyligi poetika, makro poetika, xususiy poetika): badiiy asarning kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, syujeti, motivatsiyasi, misra va bandlar qurilishi, qo'llangan badiiy tasvir vositalari, ijodkor uslubi kabi muammolarni qamrab oladi. Bunda birinchi o'rinda badiiy asar va ijodkor fenomeni turadi. "Umumiyligi poetika asarning ichki qurilishi bilan bog'liq umumiyligi qonuniyatlarini ochish, badiiy vositalar va usullar tizimini ishlab chiqishni maqsad qiladi"⁵. "Nazariy poetika" termini ilmga A.A.Potebnya tomonidan olib kirilgan. Uning "Teoreticheskaya poetika" (Nazariy poetika) asari fikrimizni quvvatlaydi.

Hozirda adabiy jarayon javharida yotuvchi jihatlarni nazarda tutgan holda adabiyot taraqqiyotining uchta stadiyasi (bosqichi)ni ajratish, garchi ular turlicha nomlansa-da, tarixiy poetikada ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan.

Jumladan, sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat mualliflar guruhibiga ko'ra "badiiy tafakkurning eng umumiyligi va barqaror uchta:

- 1) arxaik yoki mifopoetik;
- 2) traditsionalistik yoki normativ;
- 3) individual-ijodiy yoki tarixiy (ya'ni tarixiylik tamoyiliga asoslanuvchi) tiplari"^[4] mavjud.

E'tibor qilinsa, adabiy jarayonni davrlashtirish uni ilmiy o'rganish uchun zaruriy amal ekani, aniqrog'i, ushbu amal u haqda yaxlit ilmiy tasavvur hosil qilishning yagona vositasi ekanini anglash qiyin emas. Shu tufayli ham davrlashtirish adabiyotshunoslikning fundamental muammolaridan biri sifatida umum e'tirofiga molik.

⁴ Ўшма асап. – Б. 235.

⁵ Ўшма асап. – Б. 234.

Yuqorida amin bo‘ldikki, bunda har bir davrning o‘ziga xos umumiy jihatlari (topika) diqqat markaziga qo‘yiladi. Adabiyotshunoslikda bu masalada qarashlar turlichaligi kuzatilib, u ikkita asosiy ko‘rinishga ega: birinchisi adabiyotni davrlashtirishda ijtimoiy-tarixiy sharoitga asoslanishni, ikkinchisi esa adabiyotni faqat adabiy hodisalar, badiiy-estetik tamoyillardan kelib chiqib davrlashtirishni ko‘zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurakhmanov F., Mamajonov S. Uzbek language and literature. - T.; 2003.
2. Azamkhujaev S. Autonomy of Turkestan. - T.; 2003.
3. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 128.
4. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 676–680.
5. 10. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 168–170.
6. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. PEDAGOGS, 57(1), 143–146.
7. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. PEDAGOGS, 57(1), 132–138.
9. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
10. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34–37.
11. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
12. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.
13. Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.